

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYA-IQTISOD” FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

SULTANOV SHERZOD SHONAZAROVICH

**“TO‘G‘RI SOLIQLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDA
TUTGAN O‘RNI”**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

« ____ » _____ 2013

Ilmiy rahbar:

K.o‘q. S.Sagdieva

TOSHKENT 2013

Mundarija

KIRISH	3
I BOB. IQTISODIYOTDA TO'G'RI SOLIQLAR O'RNINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	
1.1. O'zbekiston Respublikasida soliqlar va soliq tizimi.....	6
1.2. To'g'ri soliqlarni undirilish jarayonining huquqiy asoslari.....	14
1.3. To'g'ri soliqlar amal qilishi yuzasidan xorij tajribasi.....	19
I bob bo'yicha xulosa	24
II BOB. TO'G'RI SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARIDAGI TUTGAN O'RNI VA AMALDAGI HOLATI TAHLILI	
2.1. Davlat budjeti daromadlarida to'g'ri soliqlar ishtirokining iqtisodiy tahlili.....	25
2.2. To'g'ri soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va undirilishini nazorat qilish.....	37
II bob bo'yich xulosa	44
III BOB. O'ZBEKISTONDA TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN XATOLIKLAR VA SOLIQ TUSHUMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	45
III bob bo'yicha xulosa.....	57
XULOSA	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	62

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida hukumatimiz oldiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini samarali boshqarishning muhim sharti bo'lgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy usullaridan foydalanish vazifasini qo'yimoqda.

Mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan budget-soliq siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, real voqelikni inobatga oladigan, ilmiy asoslangan iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Davlat moliyasi barqarorligi davlat budjeti daromadlari istiqbolini rejalashtirishga va mamlakatda amalda bo'lgan soliq-budget siyosatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham keyingi yillarda faol ravishda va turli tuman doiralarda keng muhokama etilayotgan masalalar qatorida davlat budjetining solikli daromadlarini rejalashtirish va ularning o'z vaqtida davlat budjetiga kelib tushishini ta'minlash hisoblanadi.

To'g'ri soliqlar davlat budjeti solikli daromadlarining salmoqli qismini tashkil etganligi uchun ham ayni paytda ushbu soliqlarni to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida davlat budjetiga kelib tushishi va bu ishlar hisobi olib borilishini nazorat qilib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, „Prinsipial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. Aytish joizki, yuqorida zikr etilgan ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizni takomillashtirish bilan bevosita bog'liq”.¹

Darhaqiqat, yurtboshimiz qayd etganlaridek, mamlakatdagi barcha islohotlar, ustuvor vazifalarnig muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bevosita soliq tizimi takomillashtirilmog'i lozim. Bu esa bevosita to'g'ri soliqlar bo'yicha mavjud masalalarni ham ko'rib chiqishni, sohada qator ilmiy izlanishlar olib borishni va uning natijalariga asoslanib amaldagi holatni yaxshilashga doir taklif

¹ I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2005-yil 28-yanvar

va xulosalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi aynan yuqoridagi fikrlarda ifodalanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir sharoitda davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning salmog'ini tahlil qilish va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rnini o'rganish, shuningdek, soliqlarning mohiyatini, ularni undirilishini obyektiv zarurligini yoritib bergan holda mavjud tizimdagi muammoli holatlar yuzasidan taklif-tavsiyalar berish bitiruv malakaviy ishining maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Davlat fiskal maqsadlarida to'g'ri soliqlar va soliqqa tortish masalalari yuzasidan nazariy asoslarni o'rganish;
- To'g'ri soliqlarni undirilish jarayonining huquqiy asoslarini o'rganish;
- To'g'ri soliqlar amal qilish yuzasidan xorij tajribasini o'rganish;
- To'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi amaldagi holatini tahlil qilish;
- O'zbekistonda to'g'ri soliqlarni undirishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar va soliq tushumlari samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti va obyekti to'g'ri soliqlarni undirishning amaldagi holati va yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni kamaytirish amaliyoti yuzasidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, budjet daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning to'g'ri hisoblanishini va davlat budjetiga o'z vaqtida to'liq kelib tushishini nazorat qilish; mamlakat soliq tizimini yanada takomillashtirish bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ularning ijobiy taraflarini iqtisodiyotga tadbiq etish; Respublikamizda solikli daromadlar samaradorligini oshirish, bu borada davlat va soliq to'lovchilar manfaatlari uyg'unligini ta'minlash; turli soliq imtiyozlari

berish orqali iqtisodiyotda soliq yuki darajasini pasaytirish va shu orqali ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash; amaliyotda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni o'rganish asosida xulosa va takliflar kiritish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

1-bobda to'g'ri soliqlar iqtisodiyotdagi o'rnining nazariy-huquqiy asoslari, ular amal qilishi yuzasidan xorij tajribasi keltirib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishining 2-bobida to'g'ri soliqlarning budget daromadlaridagi o'rni so'nggi statistik ma'lumotlar asosida jadval va diagrammalarda ko'rsatib berilgan.

3-bobda to'g'ri soliqlarni undirishda yo'l qo'yilayotgan asosiy xatoliklar va kamchiliklar keltirilib, ularni bartaraf etish yo'llari qayd etilgan.

Xulosa qismida esa o'rganilgan barcha ma'lumotlar asosida shakllantirilgan barcha xulosa va takliflar ko'rsatilgan.

I BOB. IQTISODIYOTDA TO'G'RI SOLIQLAR O'RNINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. O'zbekiston Respublikasida soliqlar va soliq tizimi

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. Aynan o'sha davrdan boshlab mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, davlatimizni rivojlangan davlatlar safiga qo'shish yo'lida qator ishlar, islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tabiiyki, buday ishlarni, o'zgarishlarni amalga oshirish davlatimizdan ko'p miqdorda mablag' sarflashni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan davlat budjeti mablag'larini boyitib borish, bu borada esa soliqlar va soliq tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish va shu asosda ularning davlat budjetga o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu borada esa prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, „avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani- fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak”.²

Umuman olganda soliqlar to'g'risida iqtisodchilar tomonidan ko'p gapiriladi va unga turli iqtisodchilar turlicha ta'rif beradilar. Ayni paytda esa mamlakatimizda Soliq Kodeksida berilgan ta'rif eng to'lig'i va ishonchlisi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida keltirilishicha soliqlar deganda ushbu kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.³

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinadiki, soliqlar bevosita davlat budjetiga borib tushadi va uni to'ldiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Budjet daromadlarining qariyb 90-95 %i soliqlar xissasiga to'g'ri kelishi ham ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi o'rni salmoqli ekanidan darak beradi.

² I.A. Karimov – „O'zbekiston buyuk kelajak sari”. T:O'zbekiston 1998-yil 358-bet.

³ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 12-modda.

O'zbekiston Respublikasida amalda bir qator soliq turlari mavjud va ular ro'yxati, undirilish tartibi Soliq Kodeksida ko'rsatib o'tilgan.

Unga ko'ra soliqlarga quyidagilar kiradi:⁴

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- Aksiz solig'i;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Yer qo'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- Mol-mulk solig'i;
- Yer solig'i;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.⁵

Yuqorida nomlari sanab o'tilgan soliqlar umumbelgilangan soliqlardir.

Soliq Kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- Yagona soliq to'lovi;
- Yagona yer solig'i;
- Tadbirkorlik faolyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Yuqorida nomi qayd etilgan soliqlar to'lovchisiga ko'ra quyidagicha guruhlariga ajratiladi: (1-rasm)

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 23-modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasi qonuni 52(552)-son – „Soliq va budget siyosatining 2013-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2012-yil 25-dekabr.

O'zbekiston Respublikasida soliqlarning to'lovchisiga ko'ra tasniflanishi ⁶

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar 5. Mol-mulk solig'i 6. Yer solig'i 7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar 8. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan soliq to'lovchilardan undiriladigan soliqlar	1. QQS 2. Akisz solig'i 3. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 4. Bojxona to'lovlari va boshqalar

O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli. ⁷

O'zbekiston o'zining mustaqillik yillarida soliqlarni isloh qilib soliq siyosatini olib bormoqda. 1991-yildan boshlangan Respublika soliq tizimini isloh qilish kabi siyosati tarixini 3 bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin.

⁶ Soliq kodeksi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 123-modda.

Birinchi bosqich. 1991-1994 yillar. O'zbekiston soliq tizimining tashkil etilishi, budjetning daromad qismini soliqlar bilan ta'minlash.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan „Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida”gi qonun Respublika soliq tizimiga asos solgan dastlabki qonun bo'ldi. Boshlang'ich bosqichda soliq idoralari xazaviy masalalarni hal etish, ya'ni budjetning muvozanatga erishuvini ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Ammo, hayot soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirishni talab etardi.

Soliqqa tortiladigan bazaning bozor taraqqiyotini rag'batlantirish uchun qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Shu maqsadda 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan qonunda bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Oborot solig'i va foydadan olinadigan soliq o'rniga 1992-yildan boshlab Respublikada QQS amal qila boshladi. U iste'molchi zimmasiga yuklatiladigan asosiy egri soliq sifatida budjet daromadlarida tushumlarining barqarorligini ta'minlay boshladi.

Korxonalardan olinadigan o'rmon solig'i („To'nka to'lovi”) va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi. Daromad (foyda)ga soliq QQS, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, Respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlarga va xomashyo resurslariga soliq joriy etildi.

1993-yildan belgilangan tartibga ko'ra asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiyaning 30 %i budjetga olib qo'yiladigan bo'ldi.

Xazinani to'ldirish, shuningdek resurslardan oqilona foydalanish maqsadini ko'zlab budjetga 6 foizli resurslar solig'i joriy etildi. 1992-yil 15-fevralda 1991-yilda qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida”gi qonunga qator o'zgartirishlar kiritildi.

1993-yil 7-may kuni „Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida”gi qonun qabul qilindi va ushbu qonunda ularga ta'rif berildi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i, kurort zonalaridagi ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga soliq, reklama solig'i, avtotransport vositalarini oli sotganlik ucun soliq, ularning egalariga solinadigan soliq yig'imi

jami 19 turdagi har xil soliqlar va yig'img'lar mahalliy soliqlar guruhlar tarkibiga kiritildi.

Ikkinchi bosqich. 1995-1997 yillar iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va yuridik shaxslarga soliq yukini kamaytirishga bo'lgan harakatlar.

1994-yil 30-noyabrda prezidentimizning yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar miqdorini kamaytira borish va ishlab chiqarishni soliqlar orqali rag'batlantirish to'g'risidagi farmoni qabul qilingan. Shu farmonga ko'ra 1995-yil 1-yanvardan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirganlarida 0.3 % foydaga soliq stavkasi kamaytiriladigan bo'ldi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qila borishni talab etdi. Ko'plab korxonalar va tashkilotlarni foyaga soliq to'lashdan daromadga soliq to'lashga o'tkazildi. Uning o'rtacha stavkasi 37% qilib belgilandi. Soliq to'lovchilar uchun imtiyozlar tizimi ko'zda tutildi. 1995-yildan boshlab soliq tizimini bir xillashtirish ishlari boshlab yuborildi. Bir qator kam samarali soliqlar bekor qilindi. Bularga: Respublika tashqarisiga olib chiqariladigan xom-ashyo resurslari uchun soliq, hisoblangan amortizatsiyadan 30% li budjetga to'lov va boshqalar kiradi. Jamoa xo'jaligi a'zolari va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o'rnatildi. Ya'ni, jamoa xo'jaligi a'zolari mehnatiga haq to'lash fondini soliqqa tortish bekor qilindi va ularga nisbatan fuqarolar daromad solig'i to'g'risidagi qonun tadbiq etildi va qishloq xo'jalik xodimlari soliqni kolxoz emas o'zi to'laydigan bo'ldi. Fuaqrolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o'zgartirildi.

Sarmoyadorlar uchun rag'batlantirishlar soliq tizimining barqarorlashuviga yordam berdi. 1996-yilning 1-yanvargacha ro'yxatdan o'tgan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga soliqlar tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqini taqdim etildi, boshqa barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadga soliqqa o'tkazilgan edi.

Uchinchi bosqich, 1997-yildan keyingi yillar soliq islohotlarini chuqurlashtirish.

Soliq tizimining rivojlanishi mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar bilan hamqadam borayotganligini aytib o'tishga hojat yo'q. 1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning hozirga qadar amalga oshirilayotgan 3-bosqichining boshlanishi bo'ldi.

Soliq Kodeksining qabul qilinishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi va soliqqa tortishning barcha asosi bo'luvchi huquqiy me'yorlarni yagona hujjatga to'pladi. Soliqlar imtiyozlarini tizimlashtirdi; foyda, mol-mulk, QQS ni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini o'rganish va undan foydalanishga imkon berdi.

Bu bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o'rta biznes uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalashtirilgan tizimini barpo etishga erishildi. Kichik tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar jamlamasi o'rniga yagona soliq to'lay boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son qarori bilan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi joriy etildi.

Agar ilgari aksizlanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi kirmagan bo'lsa, 1999-yil 10-oktabrdan boshlab ular aksiz solig'ini to'lash sharti bilan mazkur tizimni qo'llash tartibi o'rnatilgan.


Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-apreldagi 153-son qarori bilan tasdiqlangan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tartibiga muvofiq yalpi foyda savdo korxonalari uchun yagona soliqqa tortish obyekti bo'ldi. O'sha vaqtlarda soliq stavkasi daromadlilik darajasiga va faoliyat turlariga qarab guruhlanadi.

1999-yildan boshlab qishloq xo'jalik shirkatlari, fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarining boshqa ishlab chiqaruvchilari Respublika prezidentining „Qishloq xo'jaligi Tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini amalga kiritish to'g'risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrda 539-son qarori asosida ishlab chiqilgan budjet bilan hisob-kitoblar mexanizmiga ko'ra yagona yer solig'i to'lovchilari bo'ldilar. U amaldagi barcha umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar o'niga amalga kiritildi. Shuningdek ushbu soliq turiga doir imtiyozlar ham belgilandi. Bu qishloq mehnatkashlariga hisobot hujjatlarini qisqartirish imkonini beruvchi soliqqa tortishning soddalashtirilishiga yana bir misoldir.

Keyingi yillarda soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, ishlab chiqaruvchilarga yengilliklar yaratishga qaratilgan soliq siyosati olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotda ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. (2-rasm)

2-rasm

YAIM ga nisbatan soliq yukining o'zgarish dinamikasi ⁸



⁸ O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma ma'lumotlari asosida tuzildi. – T: “O'qituvchi” NMIU. 2013-yil


2011-yilda 21.9% ni va nihoyat 2012-yilda 21.6% ni tashkil etgan. Soliq yuki YAIMga nisbatan (masadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 2010-2012 yillarda 0.4 punktga kamaygan. Joriy yilda esa soliq yuki o'tgan yilga nisbatan 0.3 punktga kamaytirilishi, ya'ni YAIMga nisbatan (maqsadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 21.3 % bo'lishi rejalashtirilmoqda.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni inobatga olib soliq yukini kamaytirib borish o'z samarasini bermoqda. Mamalakatimizda yildan yilga tadbirkorlik subyektlari soni ko'payib, ishlab chiqarish brogan sari ko'payib bormoqda. Natijada esa izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlab borilmoqda. „Aytish kerakki, bunday iqtisodiy o'sish, ko'p jihatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq”.⁹

Soliq yukining kamayishi nafaqat umumiy hajmda, shuningdek, uning tarkibi bo'yicha ham sezilarli ravishda ko'zga tashlanmoqda. (3-rasm)

3-rasm

O'zbekistonda soliq yukining tarkibiy tuzilishi (YAIM ga nisbatan %da)¹⁰



⁹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.- Toshkent:Iqtisodiyot.2011-yil. 42-bet

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi- „2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.:Iqtisodiyot.-2012. 63-bet

Soliq yuki darajasining soliq turlari bo'yicha kamayish tendensiyasini oxirgi 11 yil bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2002-yilda bevosita soliqlar bo'yicha 7.8% dan 2012-yilga kelib 5.4% ga, bilvosita soliqlarga nisbatan soliq yuki 16% dan 11.6% ga, shuningdek, resurs soliqlari bo'yicha ham kamayib 4.7% dan 2.8% gacha kamaygan. Bu esa soliq yuki yildan yilga barcha soliq turlari bo'yicha pasaytirilayotganidan darak beradi. O'z navbatida bu kelgusida o'z natijasini beradi va bu albatta iqtisodiy o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

1.2. To'g'ri soliqlarni undirish jarayonining huquqiy asoslari

Har qanday iqtisodiy munosabat mamlakatda samarali amal qilishi uchun avvalo o'sha munosabat yuzaga kelishidan oldin uning huquqiy asoslari yaratilishi va u qonun asosida tasdiqlanmogi lozim. Bu o'z navbatida mavjud huquqiy asoslarga yuridik kuch taqdim etadi va uni bajarilishi uchun garov bo'lib xizmat qiladi. U barcha uchun barobar qilib belgilab qo'yiladi va unga bo'ysunmaslik turli xil yuridik va iqtisodiy javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda davlatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq soliq sohasi me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishga, bu borada shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan, chet davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda ularning ijobiy taraflarini tadbiq etadigan qonun hujjatlarini ishlab chiqishga katta e'tibor berildi.

Soliq siyosatining samarasi ko'p jihatdan uni huquqiy bazasining mustahkamligi bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham soliq siyosatiga soliq qonunchiligi asosida shakl beriladi. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida“ gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining „Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida“ gi (1991-yil 15-fevral), O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida“ gi (1991-yil 15-fevral), „Mahalliy soliqlar va

yig'irlar to'g'risida" gi (1993-yil 7-may) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining „Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni yuqoridagi ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarini huquqiy bazasini yanada kengayishiga, kuchayishiga xizmat qildi. „ O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" gi qonuniga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil siyosatini olib bordi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: „Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va boshqa yig'irlarni to'lashga majburdirlar"¹¹.

Bugungi kunda Respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining „Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonunlari, qarorlari, prezident farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Qayd etish joizki, mustaqillikkning dastlabki yillarida katta e'tibor asosan davlat budjeti daromadlar qismini iloji boricha ko'proq to'ldirishga, budjet muvozanatini ta'minlab shu asosda mavjud og'ir ahvoldan chiqishga qaratilgan edi. Shu nuqtayi nazardan o'sha davrda soliq stavkalari ham, ayniqsa, to'g'ri soliqlarga yuqori stavkalar belgilab qo'yilgan edi. Bu esa o'z navbatida korxona va tashkilotlar uchun ijobiy holat emasdi. Shuning uchun keyinchalik mazkur vaziyatni yumshatish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi.

1994-yil 30-noyabrda prezidentimizning yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar miqdorini kamaytira borish va ishlab chiqarishni soliqlar orqali rag'batlantirish to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Shu farmonga ko'ra 1995-yil 1-yanvardan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirganlarida 0.3 % foydaga soliq stavkasi kamaytiriladigan bo'ldi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 51-modda.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bu borada tadbirkorlik subyektlari safini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son qaroriga ilova tarzda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash tartibi ishlab chiqildi.

O'z navbatida soliq undirilish bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida, ham davlat, ham ishlab chiqaruvchilar uchun aniq bo'lishi uchun 1999-yil 5-fevralda Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qaroriga ilova tarzida „Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida” nizom ishlab chiqildi. Ushbu nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlardan biri bo'lib xizmat qildi va xizmat qilmoqda ham.

Respublikamizdagi barcha ishlab chiqaruvchilar o'zlari ishlab chiqqan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini ushbu nizomdan kelib chiqqan holda shakllantirmoqlari, soliq xizmati organlari esa moliyaviy va soliq hisobotlarni tekshirish asosida qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilmaganligi, mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi to'g'ri hisoblanganligini nazorat qilib bormoqliklari kerak. Bu o'z navbatida mahsulot tannarxni suniy tarzda oshirib ko'rsatilishini ham oldini oladi va bozorda narx-navoni asossiz tarzda ko'tarilishiga qarshi kurashishga yordam beradi. Ko'rinib turibdiki, mazkur nizom iste'molchilar uchun ham foydalidir.

Keyinchalik islohotlarni yanda chuqurlashtirib borish natijasida yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002-yil 14-yanvardagi 15 va 2002-12-son qarori bilan tasdiqlangan „Yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida” gi yo'riqnoma ishlab chiqildi. Mazkur yo'riqnomada yuridik shaxlardan undiriladigan foyda solig'i to'lovchilari, soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, soliq stavkasi aniq

belgilab olindi. Yo'riqnomada soliq imtiyozlarini tadbiq etish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish, soliqni to'lash tartibi aniq belgilab qo'yildi.

Xorij tajribasidan ma'lumki jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solish davlat budjetini to'ldirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Chet davlatlarda davlat budjeti daromadlarining katta qismi aynan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i xissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining 2002-yil 14-yanvardagi 10, 2002-16-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda N 1110-son bilan ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida yangi tahrirda yo'riqnoma ishlab chiqildi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish munosabatlarini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002-yil 14-yanvardagi 7 va 2002-8-son qarori bilan tasdiqlangan „Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida“ yo'riqnoma yangi tahrirda sihlab chiqildi va tasdiqlandi. Yo'riqnomada soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza aniqlab qo'yildi va shundan kelib chiqqan holda suv resursalaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi tushuntirib o'tildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tib barcha mol-mulk xususiy lashtirilib borilayotgan bir sharoitda mol-mulkni soliqqa tortish munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega edi. Ayna shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002-yil 22-yanvardagi 25, 2002-13-son qarori bilan tasdiqlangan „Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadiga soiqni hisoblab chiarish va budjetga to'lash tartibi to'g'risida“ yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002-yil 16-yanvardagi 16, 2002-19-son qarori bilan tasdiqlangan Adliya Vazirligi tomonidan N 1103 son bilan ro'yxatga olingan

2002-yil 5-martdagi „Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chi qarish va budjetga to’lash tartibi to’g’risida” yo’riqnoma yangi tahrirda ishlab chiqildi. Yo’riqnomalar mol-mulk solig’i undirilishi bo’yicha yuridik va jismoniy shaxslar bilan davlat o’rtasidagi maqbul munosabatlarni belgilaydi.

Islohotlarning chuqurlashib borishi natijasi o’laroq endigi navbatda mahalliy budjetlarning o’z daromad manbalari bilan to’yinishini ta’minlash masalasi turardi. Bu esa yana bir bor soliq tizimiga yuzlanishni, mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirishni talab etardi. Shu munosabat bilan davlatimizda O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi 28-son va Davlat Soliq Qo’mitasining 2003-23-son 2003-yil 5-fevralda tasdiqlangan, O’zbekiston Respublkasi Adliya Vazirligi tomonidan 2003-yil 16-fevralda 1217-son bilan ro’yxatga olingan „Mahalliy soliqlar va yig’imlarni hisoblab chiqarish va budjetga to’lash tartibi to’g’risida” yo’riqnoma ishlab chiqilgan. Mazkur yo’riqnomaga O’zbekiston Respublikasi 2006-yil 22-fevraldagi 1217-1-son bilan ro’yxarga olingan O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va O’zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo’mitasi qaroriga muvofiq o’zgartirishlar kiritilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda amalda bo’lgan soliq tizimininng asosiy huquqiy asosi bu shubhasiz Soliq Kodeksidir. Amaldagi Soliq Kodeksi ham to’g’ri, ham egri soliqlarni undirishda asosiy metodik va me’yoriy qo’llanma hisoblanadi. Ushbu kodeksning ishlab chiqilishi mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishni yanada tezlashtirib uni yangi bir bosqichga olib chiqdi.

Yangi soliq kodeksining ishlab chiqilishi o’z navbatida soliq tizimidagi qonun hujjatlari safini ancha qisqartirib, o’zida jami soliqlar bo’yicha huquqiy tartibot asoslarini yoritib berdi. Endilikda soliq qonun hujjatlaridan foydalanish barcha uchun, ayniqsa, soliq to’lovchilar uchun qulay va sodda bo’lib qoldi. Soliq Kodeksini o’qip chiqish orqali barcha soliq to’lovchilar o’zlari zimmasidagi soliq majburiyatlari, ularni bajarish tartibi, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni davlat budjetiga to’lash tartibi bilan xabardor bo’lishlari

mumkin. Eng muhimi bunda ular uchun amaldagi Soliq Kodeksi mukammal bir kompleks sifatida yordam beradi.

1.3. To'g'ri soliqlar amal qilishi yuzasidan xorij tajribasi

Mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki davrlardanoq mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish ishlari boshlab yuborilgan. Bu borda davlatimizda qator o'zgarishlar, xususan soliq tizimida ko'plab ishlar amalga oshirilgan va ayni paytda ham ushbu izlanishlar davom ettirilmoqda. Islohotlarni olib borishning ayni bosqichi bizdan chet mamlakatlar soliq tizimini o'rganib chiqish asosida ularning ijobiy taraflarini iqtisodiyotimizga tadbiq etishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan bitiruv malakaviy ishining mazkur qismida biz to'g'ri soliqlar amal qilishi yuzasidan xorij tajribasini Germaniya davlati misolida o'rganib chiqamiz.

Chet el soliq qonunchiligini o'rganuvchilari uchun Germaniya soliq tizimi alohida qiziqish kasb etadi. Germaniya — sanoati rivojlangan davlatlardan biri, jahonda yalpi ichki mahsulot bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Jahon savdosidagi ulushi bo'yicha xatto ikkinchi o'rindadir. Germaniyada moliya tizimi, ayniqsa, bank va soliq tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu davlatda bir qator soliq turlari amal qiladiki, ularning ayrimlarini biz mamlakatimizda uchratmasligimiz mumkin. Germaniya soliq tizimi, unda qanday soliq turlari amal qilishi va ularning tasniflanishini biz quyidagi chizmada ko'rib o'tishimiz mumkin. (4-rasm)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Germaniya soliq tizimi biznikidan ancha farq qiladi. Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha rivojlangandir va soliq turlari ham O'zbekistondagidan bir muncha ko'p. Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. Buni yer solig'i va jismoniy shaxslar daromadiga soliqda ko'rishimiz mumkin.

Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar mavjud. Korporatsiyalar daromadini soliqqa

tortishda daromadlar ikkiga bo'linadi, ya'ni taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan.

4-rasm

Germaniya davlati soliq tizimi¹²

Budjetga kelib tushishiga ko'ra bo'linishi	Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bo'linishi		Budjetni shakllantirish darajasiga ko'ra		
	To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar	Davlat soliqlari	Hududiy soliqlar	Munitsipial soliqlar
Federal soliqlar Yerlar soliqlari Munitsipial soliqlar	jismoniy shaxslar daromad solig'i; korporatsiyalar daromadiga soliq; mol-mulk va meros solig'i; turar-joy solig'i; teransport solig'i; tabiiy neftga soliq; qimmatli qog'ozlardan soliq; uy hayvonlariga soliq; kosibchilik solig'i	Aksiz solig'i; QQS; Bojxona bojlari	QQS; Aksiz solig'i; Jismoniy shaxslar daromad solig'i; Korporatsiyalar daromadiga soliq; Mol-mulk solig'i; Boj yig'implari; Sug'urta solig'i; Veksel solig'i	QQS; Korporatsiyalar daromadiga soliq; Mol-mulk solig'i; Transport solig'i; Pivoga soliq; Bilyard, kazinolarga soliq; Yer solig'i; Lotoreyaga soliq	Daromad solig'i; Yer solig'i; Mol-mulk solig'i; Kosibchilik solig'i; It egalaridan soliq; Mahalliy iste'mol soliqlari

O'zbekistonda bu soliq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i deb yuritiladi. Yuridik shaxslarning faoliyatidan kelib chiqib, korxonalar uchun yagona soliq to'lovi yoki soddalashtirilgan soliq tizimidagi boshqa bir soliqni to'laydilar.

Endi Germaniyada solikli daromadlar, ularning tarkibi va yillar davomida o'zgarish dinamikalariga bir nazar tashlasak va shu orqali to'g'ri soliqlarni Germaniya iqtisodiyotidagi o'rnini tahlil qilib o'tsak. (1-jadval)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Germaniya davlatida jami budjet daromatlari YAIM ga nisbatan 2010-yilda 43.6 %, 2011-yil 44.5 %, 2012-yil 45.2% ni tashkil etgan. Solikli daromadlar esa mos ravishda 23.2 %, 22.2 %, 21.2 % ni tashkil etgan.

¹² Kuziyeva N.R. – Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti 2005-y. 30-bet.

2010-2012 yillarda Germaniya davlat budjeti asosiy ko'rsatkichlari ¹³

	YAIM ga nisbatan %da			Milliy valyutada (mln euro)		
	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
Jami budjet daromadlari	43,6	44,5	45,2	1087380	1154890	1194080
Soliqlar	22,2	22,9	23,6	553220	593780	622990
Egri soliqlar	11,0	11,3	11,3	275690	292940	298340
To'g'ri soliqlar	10,9	11,4	12,1	273120	296590	320340
Kapitalga soliqlar	0,2	0,2	0,2	4410	4250	4310
Jami solikli daromadlarga nisbatan to'g'ri soliqlar ulushi	49.35	49.95	51.4	X	X	X

22.9 % ni tashkil etgan. Solikli daromadlarni tarkiban tahlil qiladigan bo'lsak, to'g'ri soliqlar salmog'ining ancha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2010-yil 273120 mln euro, 2011-yil 296590 mln euro, 2012-yilda esa 320340 mln euro miqdorida to'g'ri soliqlar to'planib, ular mos ravishda YAIM ga nisbatan 10.9 %, 11.4 %, 12.1 % ni tashkil etgan. Jami soliqlarga nisbatan esa to'g'ri soliqlar 2010-yil 49.37 %, 2011-yil 49.95 %, 2012-yil esa 51.4 %ni tashkil etgan. Umuman olganda yuqoridagi raqamlardan ham Germaniyaning qay darajada rivojlangan davlat ekanini ham ko'rishimiz mumkin.

Germaniya soliq tizimida daromad solig'i yetakchi o'rinni egallaydi. Bu soliq har yili faqatgina absolyut summada emas, balki byudjet daromadlaridagi nisbiy miqdorda ham o'smoqda. Daromad solig'i mamlakatda jismoniy shaxslardan undiriladigan eng muhim to'g'ri soliqlardan biridir. Bunday soliqqa yollanma ishlarda ishlaydigan, erkin kasbdagi shaxslarning daromadlari (gonorarlari),

¹³ Eurostat ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi. <http://ec.europa.eu>

kapital daromadga, bank qo'yimlaridan tushadigan foizlar, ijara, turar-joy binolarini ijaraga topshirish, shaxsiy faoliyat va boshqalar tortiladi. Teng daromadga teng soliq (uning manbaidan qat'iy nazar) tamoyili soliqqa tortishning asosidir. 2013 yilning yanvar oyidan boshlab soliqqa tortilmaydigan minimum daromad bo'yodoklar uchun 6800 yevro va oilali fuqarolar uchun 14560 yevroni tashkil qildi. Bo'yodoqlardan yiliga 6800 yevrodan 19056 yevrogacha, oilali fykapolardan esa 14560 yevrodan 38590 yevrogacha 22 foiz miqdorida soliq ushlab qolinadi (eng kam stavkada). Tegishli ravishda 19056-38590 markadan 130031-260063 markagacha bo'yodoqlar va oilali fuqarolardan daromad o'sib boruvchi stavka asosida 22 foizdan 56 foizgacha soliqqa tortiladi.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, shuni xulosa qilish mumkinki, Germaniya Federativ Respublikasida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining stavkalari jahon soliq tizimida qo'llaniladigan stavkalardan ancha yuqoridir. Germaniyada bu xil soliq hisoblanishi ko'p mehnat va vaqt resurslarini talab qilishiga qaramasdan, ancha mukammal va differentsiyalanganligi uni boshqa mamlakatlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblanishi, undirilishi usullaridan farq qilishini ko'rsatadi. Soliqni aniqlanishida juda ko'p omillar hisobga olinadi: oilaviy ahvol, ishlaydiganlar soni, mehnat faoliyatining qanday turdaligi, qaysi mutaxassislik bo'yicha daromad olayotgani va h.k. Bu ma'lumotlar o'z navbatida yana bir necha kategoriyalarda klassifikatsiyalanadi. Chegirmalar, imtiyozlar juda keng miqyosda ishlatiladi. Bunday katta informatsion ma'lumotlar bazasi soliq qonunchiligi asosida aniq va o'z vaqtida hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'rni naqadar katta ekanligi quyida jadval ma'lumotlari orqali ham anglab olishimiz mumkin. (2-jadval)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Germaniya Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlarining salmoqli qismini tashkil etadi.

2-jadval

**2009-2011 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
ko'rsatkichi tahlili ¹⁴**

	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2011-yil Yevropa Ittifoqi davlatlari orasidagi o'rni	2011-yil to'plangan soliq summasi (mln euro)
YAIMga nisbatan %da	9.1	8.3	8.4	9	218150
Jami solikli daromadlarga nisbatan %da	23.1	21.9	21.8	11	218150

Birgina 2011-yilning o'zida 218150 mln euro miqdorida soliq to'plangan va jami soliq daromadlarga nisbatan 21.8% va YAIM ga nisbatan 8.4% ni tashkil qilgan. Oldingi yillarda bu ko'rsatkich 2009-yil YAIM ga nisbatan 9.1 %, jami solikli daromadlarga nisbatan esa 23.1% ni tashkil etgan. Mazkur davlat 2011-yil jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i salmog'i bo'yicha Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida YAIM ga nisbatan 9-o'rinni (Daniya, Shvetsiya, Finlandiya, Belgiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Irlandiya) egallagani ham bu soliq qay darajada mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Shunday ekan murakkab iqtisodiy jarayonlar yuz berayotgan ayni paytda to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromdlari tarkibidagi ulushini orttirib borish, bu borada soliq to'lovchilarga og'irlik tushmasligini ta'minlash zarur.

¹⁴ <http://ec.europa.eu/taxtrends> internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

I bob bo'yicha xulosa

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, ayni paytda amal qilayotgan soliqlar va soliq tizimi mamlakatimizda davlat budjetini to'ldiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarining qariyb 90-95 % i har yili soliqlar hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida keltirilishicha soliqlar deganda ushbu kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Mamlakatimiz soliq tizimi to'g'ri va egri soliq'larga bo'lib o'rganiladi.

Mamlakatimizda soliqlar va soliqqa tortish tizimi huquqiy asoslarini yaratishga, ularni mustahkamlab borishga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu sohada qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, 2008-yilda yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Soliq tizimida har yili turli islohotlar olib borish orqali uni yanada takomillashtirishga harakat qilinmoqda. Bu borada ham o'zimizdagi mavjud imkoniyatlardan va tarixiy tajribadan, ham xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanilmoqda. Mamlakatimizda mukammal soliq tizimini yaratish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga harakat qilinmoqda. Bu borada soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasidan oqilona foydalanish orqali har yili iqtisodiyotimizda ishlab chiqarish sur'atlari o'sishi ta'minlanmoqda.

II BOB. TO'G'RI SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARIDAGI TUTGAN O'RNI VA AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Davlat budjeti daromadlarida to'g'ri soliqlar ishtirokining iqtisodiy tahlili

Oldingi bobda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat budjeti daromadlarining 90 foizdan ortiq qismi soliq tushumlari hisobidan shakllanadi.

Tarixan soliqlar har qanday davlat budjetini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Soliq tushumlari hisobidan davlat qurilish va jamiyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jalb qilinadi. O'zining mohiyatiga ko'ra soliqlar davlat budjetining yuqori daromadli manbalaridan biridir. Buning boisi shundaki, birinchidan, soliqlar davlat budjetiga qaytarib bermaslik sharti bilan olinadi; ikkinchidan, ular budjetning davlat xarajat qilmaydigan qismi hisoblanadi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonining muhim bosqichidan o'tmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyati va davlatning bilvosita boshqarishga asoslangan holda raqobatchilik mexanizmiga tayanib chuqur tuzilmaviy islohotlar olib borilmoqda. Bilvosita boshqarish deb iqtisodiy rivojlanish muhim jarayonining soliq tizimi orqali tartibga solinishi va rag'batlantirilishi tushuniladi.

Darhaqiqat, soliq tizimi islohot jarayoning tarkibiy qismi, uning ichki harakatlantiruvchi omili bo'lgan holda iqtisodiy islohot maqsadlariga eng ko'p darajada muvofiq kelishi shart. „Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini, amaliyotda harakat qilayotganini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doim yashab soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur”¹⁵. Hozirgi kunda soliqlarning funksiyalari va ularning aniq soni haqida munozaralar mavjud. Ammo zamonaviy soliqqa tortish tizimida soliqlarning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatish mumkin: fiskal, taqsimot, nazorat, rag'batlantirish va tartibga solish.

¹⁵ Yahyoyev K.- Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T: G'.G'ulom nashriyoti 2000-yil 12-bet.

Soliqlarning fiskal funksiyasi orqali soliqqa tortishning asosiy vazifasi, ya'ni davlat moliyaviy mablag'larining shakllantirilishi, shuningdek, davlatning umumdavlat va maqsadli dasturlarini amalga oshirish uchun mablag'larni jamg'arish vazifalarni amalga oshiradi. Soliq tushumlari davlat budjeti daromadlarining asosini tashkil qiladi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rishimiz mumkin. (3-jadval)

3-jadval

Davlat budjeti daromadlari tarkibida solikli tushumlar o'рни¹⁶

Ko'rsatkich-lar	2010-yil		2011-yil		2012-yil		2013-yil (prognoz)	
	Mrld so'm	Jami ga nisb atan %da	Mrld so'm	Jami ga nisba tan %da	Mrld so'm	Jami ga nisba tan %da	Mrld so'm	Jami ga nisb atan %da
Jami budjet daromadlari (Davlat maqsadli jamg'armalari-siz)	13116.3	100	16178.5	100	20614.1	100	25104.9	100
Soliqli daromadlar jami	12394.2	94.5	15346.8	94.9	19380.6	94.0	23672.5	94.3

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki davlat budjeti daromadlari tarkibida solikli tushumlarning salmog'i ancha yuqori. Xususan, 2010-yil solikli daromadlar jami budjet daromadlarining 94.5% ini tashkil etgan bo'lsa, bu

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (PIK-1887, PIK-1675, PIK-1449, PIK-1245)

ko'rsatkich 2011-yil 94.9%, 2012-yil 94% va 2013-yil 94.3% bo'lishi rejalashtirilgan. Mablag'larni milliy valyutada taqqoslash natijasi shuni ko'rsatadiki, 2010-yil jami 12394.2 mlrd so'm, 2011-yil 15346.8 mlrd so'm miqdorda soliq to'plangan; o'tgan yilga nisbatan 2952.6 mlrd so'm ko'proq soliq undirilgan. Foizlar hisobida tahlil qiladigan bo'lsak, soliqlar hisobiga shakllantirilgan mablag'lar o'tgan yilga nisbatan 0.4 punktga oshgan. 2012-yilda esa 19380.6 mlrd so'm undirilgan bo'lib, joriy yildagi reja o'tgan yilda yig'ilgan soliqqa nisbatan 4291.9 mlrd so'm ortiq, ya'ni 23672.5 mlrd so'm bo'lishi rejaga kiritilgan. Soliqli daromadlarning jami budjet daomadlari tarkibidagi salmog'i esa 0.3 punktga o'sishi ko'zlangan. Umuman olganda har yili solikli tushumlar o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda. Faqatgina 2012-yilga kelib soliqlar ulushi sal kamayganday ko'rinishi mumkin. Lekin, tahlil qilingan barcha yillarda solikli daromadlarning ulushi 94% dan tushmagan. Bu esa ancha yuqori ko'rsatkich demakdir.

Yuqoridagi bayon etilgan holatlarning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning tutgan o'rnini ushbu paragrafda ko'rib chiqamiz. Davlat budjeti daromadlari tarkibini o'rganib chiqadigan bo'lsak, to'g'ri soliqlar davlat budjeti daromadlarining salmoqli qismini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. (4-jadval)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar salmog'i 2010-yil 26.1 % bo'lgan bo'lsa, 2011-yil 26.2 % ga yetgan ya'ni 0.1 punktga oshgan; 2012-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 25.2 %ga to'g'ri kelgan 1.0 punktga o'tgan yilga nisbatan pasaygan. Joriy yilda to'g'ri soliqlar jami davlat budjeti daromadlariga nisbatan 26.2 %ni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, 6583100 mln so'm mablag' to'g'ri soliqlar tarzida undirilishi ko'zda tutilgan. Yillar davomida undiriladiga to'g'ri soliqlar summasida ham o'sish kuzatilmoqda. Xususan, 2010-yil 3420602.8 mln so'm miqdorda soliqlar undirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012-yilga kelib 5196400 mln so'mga yetgan, 2010-yilga nisbatan 1775797.2 mln so'm ko'p mablag' to'plangan.

4-jadval

2010-2013 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari¹⁷

Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		2012-yil		2013-yil (reja)	
	Mln so'm	Jami ga nisbatan %da	Mln so'm	Jami ga nisbatan %da	Mln so'm	Jami ga nisbatan %da	Mln so'm	Jami ga nisbatan %da
I. Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarisiz - jami	13116396,9	100	16178563,5	100	20614100,0	100	25104900	100
1.To'g'ri soliqlar	3420602,8	26,1	4238732,8	26,2	5196400,0	25,2	6583100	26,2
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	645476,1	4,9	825011,7	5,1	917200,0	4,4	1239000	4,9
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariidan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar	297034,7	2,2	527481,4	3,3	703500,0	3,4	817300	3,3
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar	346321,2	2,6	378360,0	2,3	538500,0	2,6	755800	3
1.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1535033,4	11,7	1789700,0	11,1	2372700,0	11,5	2769700	11
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq	139145,7	1,1	187547,1	1,1	218100,0	1,1	342100	1,4
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	457591,7	3,5	530632,6	3,3	446400,0	2,2	659900	2,6
2. Egri soliqlar	6973809,5	53,1	8656853,1	53,5	11187800,0	54,3	13039400	51,9
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	3987982,3	30,4	5228773,9	32,3	6784500,0	33,0	7737800	30,1
2.2. Aksiz solig'i	2191092,1	16,7	2481794,0	15,3	3115500,0	15,1	3726500	14,8
2.3. Bojxona boji	479267,2	3,8	515980,5	3,2	732400,0	3,5	992600	3,9
2.4. transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	315467,9	2,4	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500	2,3
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	1974143,8	15,1	2308908,7	14,3	2746400,0	13,3	3755500	15
3.1. Mol-mulk solig'i	354128,5	2,7	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400	3,3
3.2. Yer solig'i	303850,1	2,3	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300	2,6
3.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq	1265000,0	9,6	1409715,0	8,7	1585300,0	7,7	2180100	8,7
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq	51165,2	0,4	61794,6	0,4	73100,0	0,3	97700	0,4
4. Ustama foyda solig'i	25695,7	0,2	142314,4	0,8	250000,0	1,2	294500	1,3
5. Boshqa daromadlar	722145,1	5,5	831754,5	5,1	1233500,0	6,0	1432400	5,6

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (PIK-1887, PIK-1675, PIK-1449, PIK-1245)

Foizlarda tahlil qiladigan bo'lsak, 51.9 % ga to'g'ri solikli tushumlar o'sgan.

Undirilgan soliq summolari o'sish foizini iqtisodiyotimizdagi inflatsiya darajasi bilan solishtiradigan bo'lsak, bu borada progress borligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni to'plangan soliq summolari o'sish darajasi inflatsiya darajasidan yuqori.

Endi to'g'ri soliqlarni tarkiban tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu guruhga kiruvchi soliqlar ichida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar kabi soliq turlari yuqori salmoqqa ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i jami budjet daromadlariga nisbatan 2010-yilda 11.7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 11.5 % ga teng bo'lgan. O'tgan 2 yil davomida ushbu soliq turi bo'yicha tushumlar salmog'i kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan, ya'ni 11.7 % dan 11.5 % ga tushgan, 0.2 punktga pasayish kuzatilgan. Joriy yilda esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i jami budjet daromadlariga nisbatan 11.0 % ni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, mazkur soliq turining jami budjet daromadlari tarkibidagi ulushining bunday o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etmoqda:

- So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, ya'ni soliq stavkalarining yildan-yilga kamaytirilib borilishi (5-jadval);
- Jismoniy shaxslarga berilayotgan soliq imtiyozlari;
- 2013-yildan boshlab jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda eng kam ish haqininng yil boshidagi summasidan kelib chiqib hisoblanishi va hokazolar.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari yildan yilga mamlakatimizda kamaytirilib borilmoqda. Bu ayniqsa eng kam ish haqining 5 baravarigacha miqdorda bo'lgan miqdorda daromad oluvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda yaqqol ko'rinadi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasining o'zgarish
dinamikasi ¹⁸**


Yillar	Eng kam ish haqining 5 baravarigacha miqdorda	Eng kam ish haqining 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda	Eng kam ish haqining 10 baravari va undan yuqori miqdorda
2009	12%	17%	22%
2010	11%	16%	22%
2011	10%	16%	22%
2012	9%	16%	22%
2013	8%	16%	22%

Ushbu guruh bo'yicha soliq stavkalari oxirgi 5 yilda har yili 1% dan pasaytirilib borilmoqda. Eng kam ish haqining 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda daromad oluvchi shaxslar daromadini soliqqa tortishda soliq stavkasi 2009-yilda 17% bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda 16% ga tushirilgan va ayni paytda ham o'zgarishsiz saqlab qolingan. Bu shundan dalolat beradiki so'nggi yillarda mamlakatimizda kam daromadli shaxslarni qo'llab quvvatlashga katta e'tibor qaratib shu asosda aholiga iqtisodiy ko'maklashishga harakat qilinmoqda. Aholini soliqqa tortishda ularning iqtisodiy ahvolini e'tiborga olib ularga yordam berishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, matematik hisob-kitoblar olib bormasdan turib ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'ri soliqlar ichida eng yuqori salmoqqa ega ekanligini aytishimiz mumkin. Chunki mamlakatimizda ishlovchi aholi soni ancha ko'p va ularning ko'pchiligi o'rindoshlik asosida ham ishlaydi. Shu sababli ham bu soliqni to'lovchilar soni boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq. 10-jadval ma'lumotlari esa bu fikrimizni yaqqol isboti bo'la oladi. (5-rasm)

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T: "O'qituvchi" NMIU. 2013-yil. 47-bet

**To'g'ri soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
salmog'i tahlili ¹⁹**



Diagrammadan ko'rinib turibdiki, davlat budjetiga kelib tushadigan to'g'ri soliqlarning katta qismi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i xissasiga to'g'ri keladi. Yuqoridagi ma'lumotga ko'ra 2010-yilda to'g'ri soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i jami to'g'ri soliqlarga nisbatan 44.9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 42.2 % ga to'g'ri kelgan, 2.2 punktga kamaygan. Joriy yilda mazkur soliq to'g'ri soliqlarning 42.1 % ini tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, 2012-yilga nisbatan 3.5 punktga pasaytirish ko'zlangan.

To'g'ri soliqlar ichida eng katta salmoqqa ega bo'lganlaridan yana biri yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, 2008-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi tahriri foydalanila boshlandi. Kodeksning 19-bobi yuridik

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (PIK-1887, PIK-1675, PIK-1449, PIK-1245)

shaxslardan olinadigan daromad solig'iga bag'ishlangan. Unga ko'ra foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining soliq solish obyekti quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;
- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq Kodeksiga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan so'nggi yillarda soliq tizimi mukammallashtirilib, takomillashtirilib borilmoqda. Natijada, jahon andozalariga javob beradigan soliq tizimi shakllantirilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda yuridik shaxslardan soliq undirish tartibi ham takomillashtirilib borilmoqda. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- 2007-yil 1-yanvardan boshlab daromadni soliqqa tortishdan foyadan soliq undirila boshlandi;
- Soliq hisobotlarini topshirish soddalashtirilmoqda;
- Soliq stavkalari doimiy ravishda pasaytirilib borilmoqda va boshqalar.


Ushbu amalga oshirilayotgan islohotlar asosida soliqlarning fiskallik funksiyasi nuqtayi nazaridan budjetdan tushumlar ortadi, ammo ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasiga ko'ra korxonalar ixtiyorida ko'proq mablag' qolishini

ta'minlash bilan birga, korxona faoliyatini kengaytirish, korxona zimmasiga to'g'ri keladigan soliq yukining pasayishini, bular zahirida esa xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarishni kengaytirishni qiziqishi ortishini ta'minlaydi. Pirovardida yaratilayotgan milliy mahsulot miqdorining o'sishi bilan birga, budjetga tushumlarning o'sishi ta'minlanadi.

Biz quyidagi jadval ma'lumotlari asosida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasining pasayishi bilan budjet daromadlarida ushbu soliq turi tushumlari holatini tahlil qilamiz. (6-rasm)

6-rasm

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari
(% hisobida)²⁰



Haqiqatdan ham ko'rganimizdek, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari pasayish tendensiyasiga ega.

Yuqorida e'tirof etganimizdek, mamlakatimiz soliq siyosatida soliq stavkalarining pasaytirib borish siyosati amal qilmoqda. Jahon tajribasiga e'tibor qiladigan bo'lsak, nafaqat soliq stavkalari soliq obyekti, soliq imtiyozlari kabi dastaklar ham foydalaniladi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (IIQ-1887, IIQ-1675, IIQ-1449, IIQ-1245)

Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining, xususan soliq stavkalari pasayishining budjetga tushumlarga ta'sirini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilamiz. (6-jadval)

6-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining budjet daromadlari va to'g'ri soliqlar tarkibidagi o'rni tahlili ²¹

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil reja
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i (mln so'mda)	645476,1	825011,7	917200.0	1239000
Budjet daromadlaridagi ulushi (% da)	4.9	5.1	4.4	4.9
To'g'ri soliqlar jami (mln so'm da)	3420602,8	4238732.8	5196400	6583100
To'g'ri soliqlardagi ulushi (% da)	18.9	19.5	17.7	18.8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i 2010-yil 645476.1 mln so'mdan 2012-yilda 917200 mln so'mga yetgan, 271239.9 mln so'mga o'sgan. 2013-yilga bu ko'rsatkich 1239000 mln so'mga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu soliq turining to'g'ri soliqlar tushumidagi ulushi 2012-yilda 2010-yilga nisbatan 1.1 punktga, budjet daromadlaridagi ulushi 0.5 punktga pasaygan. Joriy yilga bo'lsa yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ulushi budjet daromadlarida 4.9 %, to'g'ri

²¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (PIK-1887, PIK-1675, PIK-1449, PIK-1245)

soliqlar tarkibida 18.8 % bo'lishi kutilmoqda. 2013-yilga kelib mazkur soliq turi bo'yicha soliq tushumlari ulushining ortishi bu o'z navbatida o'tgan yillarda olib borilgan islohotlar natijasi sanaladi, mamlakatda yaratilgan samarali soliq tizimi evaziga iqtisodiyotda ishlab chiqarish rivojlanganligi ko'rsatadi va soliqlarning yana bir bor rag'batlantiruvchi funksiyasini samarasini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yildan yilga mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarga yengillik yaratish maqsadida ularga turli imtiyozlar berilmoqda. Xususan quyidagi yuridik shaxslar 2017-yilning 1-yanvariga qadar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etilgan. (7-rasm)

7-rasm

2017-yilning 1-yanvariga qadar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovini to'lashdan ozod qilingan yuridik shaxslar²²

Xizmat turlari		
Moliya bank xizmatlari	Maishiy xizmatlar	Boshqa xizmatlar
- Lizing bo'yicha xizmatlar; - Sug'urta bozoridagi professional ishtirokchilarning xizmatlari; - Auditorlik xizmatlari; - Buxgalteriya hisobini yurtish bo'yicha xizmatlar; - Mikro kreditlash bo'yicha xizmatlar; - Soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar	- Charm buyumlar va poyafzal ta'mirlash xizmatlari; - Soatsozlik va ta'mirlash xizmatlari; - Maishiy elektron va elektr asboblarga texnik xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	- Veterenariya xizmatlari; - Ta'lim sohasidagi, kompyuterda ishlashga o'rgatish xizmatlari; - Sanatoriylar, bolalar sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar sport seksiyalari va sport muassasalari xizmatlari; - Nogironlar, qariyalar va bolalarni parvarish qilish bilan bog'liq ijtimoiy xizmatlar; - Rieltorlik xizmatlar - Axborot resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari va elektron ta'lim xizmatlari

To'g'ri soliqlar tarkibini tahlil qilarkanmiz, navbatdagi soliq turi bu savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi hisoblanadi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovi bu soddalashtirilgan soliq tizimi tarkibiga kiruvchi soliq turi hisoblanadi. Unga

²² O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish“ mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T: “O'qituvchi” NMIU. 2013-yil. 50-bet

ko'ra mazkur soliqni to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza bu mahsulot sotishdan tushgan sof tushumdan mahsulot tannarxiga ketgan xarajatlarni chegirib tashlagandan keyin qoladigan yalpi tushum hisoblanadi.

Mamlakatimizda mikrofirma va kichik korxonalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizningcha, mikrofirma va kichik korxonalar quyidagi xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi:


- Unchalik yirik miqdorda mablag' talab qilmaydi;
- Kichik korxonalar bir faoliyat turidan ikkinchi birsiga o'tib olishi yengil;
- Iqtisodiy yo'qotishlar salmog'i kam bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan kichik korxonalar va mikrofirmalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga soliq tizimida ham ular uchun alohida yondashuv mavjud.

Quyidagi jadvalda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi ulushlari dinamikasi keltirilgan. (8-rasm)

8-rasm

**Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi
ulushlari dinamikasi (% hisobida) ²³**



²³ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va budjet parametrlari prognozi to'g'risida"gi qarorlariga ilovalar asosida talaba tomonidan tayyorlandi. (PIK-1887, PIK-1675, PIK-1449, PIK-1245)

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2006-yilda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha davlat budjetiga ajratmalarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 1.8 %ni va to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi 6.5 %ni tashkil etgan. 2012-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 3.4% va 13.5 % bo'lgan. 2013-yilga esa davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 3.3 % va to'g'ri soliqlar tarkibidagi salmog'i 12.4 % bo'lishi rejaga kiritilgan.

Ushbu soliqlarning davlat budjeti daromadlari va to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushining o'sib borishi o'z navbatida ijobiy hol hisoblanadi. Sababi, bu trend savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari soni ortganini ko'rsatib, savdo aylanmasi ko'payganidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda raqobat kuchayishi natijasida aholiga xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilanadi.

2.2. To'g'ri soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va undirilishini nazorat qilish

Iqtisodiyotni liberallashtirish, modernizatsiyalash va islohotlarni chuqurlashtirish siyosati iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida turli mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil qilishning demokratik prinsiplarga muvofiq shakllantirishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turganini kuzatish qiyin emas.²⁴

Haqiqatdan ham ayni paytdagi barcha islohotlar negizida bozor munosabatlariga asoslangan, turli mulkchilik shakllari amal qiladigan iqtisodiy tizimda xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish, bu borada tomonlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shu orqali davlat budjeti daromadlar bazasini boyitib borish yotadi. Aynan shu nuqtai nazardan soliqlarni to'g'ri hisoblanishini nazorat qilish, ularning davlat

²⁴ «Xalq so'zi» 2008 yil 9 fevral. - №29

budjetiga to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini nazorat qilish muhim masala hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning yuqoridagi qismida olib borgan tahlil natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqqa ega soliqlar hisoblanadi. Bevosita ular hisobiga har yili davlat budjetiga milliardlab summada mablag'lar kelib tushadi. Davlat budjeti daromadlar bazasining ushbu qismini jami daromadlarga nisbatan salmog'ni oshirib borish, ularning to'g'ri hisoblanishini va to'liq undirilishini ta'minlash hamda ushbu jarayonni takomillashtirish ayni paytdagi dolzarb masalardan biridir.

To'g'ri soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va undirilishini nazorat qilish, avvalambor, ularning har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritishni va shu asosda har bir turi bo'yicha alohida tahlil yuritishni talab qiladi. Chunki, ularning har biri o'ziga xos hisoblash texnikasiga va alohida xususiyatlariga ega. To'g'ri soliqlarni, o'zi umuman barcha turdagi soliqlarni undirishda, ularning to'g'ri hisoblanishini nazorat qilish, avvalambor, soliq solinadigan bazani to'g'ri shakllantirilganini tekshirishdan boshlanadi. Chunki, soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq va majburiy to'lovning stavkasi tadbiquan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.²⁵ Quyida to'g'ri soliqlarning ayrim turlari bo'yicha soliq solinadigan bazani hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ida soliq solinadigan baza jami daromad bilan Soliq kodeksi V bo'limida nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, mazkur Kodeks 158-moddasining ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda ushbu Kodeksning 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 26-modda.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza ushbu Kodeksning 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Bunda yuridik shaxsning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, Soliq Kodeksning 179 va 180-moddalariga muvofiq soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:²⁶

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 171-modda.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab

olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda soliq solinadigan baza bo'lib foydalanilgan suvning hajmi xizmat qiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblashda soliq solinadigan baza quyidagilardir:

- asosiy vositalar bo'yicha — asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining Soliq Kodeksning 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko'rsatilgan ko'chmas mulk ob'ektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyekt bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblashda soliq solinadigan baza yer uchastkasining soliq Kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblashda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar

summasiga, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Yuqorida to'g'ri soliqlarni hisoblashda har bir soliq turi bo'yicha soliq solinadigan bazalar keltirib o'tildi. Ayni paytda davlat soliq xizmati organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri to'g'ri soliqlarni to'liq va o'z vaqtida davlat budjetiga kelib tushishini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada avvalambor, davlat soliq xizmati organlarini boshqa organlar bilan hamkorligini oshirish kerak. Xususan, tijorat banklari bilan hamkorlikni oshirish orqali davlat budjetiga soliqlarni o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash, budjetdan qarzidorlik darajasini pasaytirish mumkin. Ya'ni budjetdan soliq qarzidorligi bor xo'jalik yurituvchi subyektlarning bankdagi hisobvraqamlariga inkasso topshiriqnomasini qo'yish orqali soliq qarzini bankdagi hisobvraqamlaridagi mablag'ni so'zsiz undirib olish mumkin.

Shuningdek, ko'chmas mulkka huquqlarni ro'yxatga oluvchi organ bilan hamkorlikda ishlash orqali davlat budjetiga mol-mulk solig'i va yer solig'ini undirilishini nazorat qilib borish mumkin. Bu borada yer kadastridan va davlat mulkini baholash organidan olingan ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni ko'chmas mol-mulk qiymatini qayta baholash davlat budjetiga tushumlar summasini oshishiga olib keladi. Bu borada yagona oyna tizimini yanada takomillashtirish kerak.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirishda suv xo'jaligi tashkilotlari bilan hamkorlik ishlari olib boriladi. Bunda suv xo'jaligi tashkilotlaridan olingan ma'lumotlar undirilgan soliq summalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va shu orqali soliq summalari to'liq undirilishi nazorat qilib boriladi.

Ayni paytdagi eng nazorat qilinishi kerak bo'lgan soliq turi bu – yer qo'riqidan foydalanganlik uchun soliq hisoblanadi. Chunki, foydali qazilmalar davlat mulki hisoblanadi va qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan foydali qazilmalardan foydalanish samaradorligini oshirish, bu borada ushbu soliq turi bo'yicha soliq tushumlarini to'liq kelib tushishini nazorat qilish

maqsadida Respublika geologiya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Geologiya institutlari yer qatlamlarini o'rganish orqali qancha resurs yer qa'ridan chiqarib olinganligini hisoblaydilar. Keyinchalik olingan ma'lumotlar haqiqatda to'langan soliq summasi bilan solishtiriladi.

II bob bo'yicha xulosa

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha xulosa yasashimiz mumkin, davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar salmoqli hissaga ega. Ular ayni paytda davlat budjetining doimiy va barqaror daromad manbalaridan hisoblanadi. To'g'ri soliqlar hisobiga har yili davlat budjetiga katta miqdorda mablag' jalb qilinadi.

Har yili davlat budjeti daromadlarining 25-26 % i to'g'ri soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Shundan eng katta salmoqqa ega soliq turlari bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hamda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olindigan yagona soliq to'lovi hisoblanadi. Ayni paytda soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar qay darajada natija berayotganini yuqoridagi tahlil natijalari ham isbotlaydi. Soliq imtiyozlari berish, soliq stavkalarini pasaytirib borish, o'z navbatida soliqqa tortiladigan daromad bazasini ham kengayishiga olib kelmoqda.

Budjet daromadlarini shakllantirishda to'g'ri soliqlarning egri soliqlarday yuqori salmoqqa ega emasligini yuqoridagi tahlil ma'lumotlari isbotladi. Endilikda ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'ini oshirib borish bizning oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, budjet daromadlarida to'g'ri soliqlar tushumi o'sish tendensiyasining kuzatilishi ijobiy holat hisoblanadi. Chunki iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarda to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi yuqori bo'ladi.

III BOB. O'ZBEKISTONDA TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN XATOLIKLAR VA SOLIQ TUSHUMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Mamalakat o'z oldiga qo'ygan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi uchun katta miqdorda mablag'larga ehtiyoj sezadi. Davlat budjeti esa davlatning asosiy moliyaviy fondi hisoblanib, davlat barcha xarajatlarni uning hisobiga amalga oshiradi. Iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlarning qay darajada samarali chiqishi ham ko'p jihatdan soliqlarning o'z vaqtida ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Shved iqtisodchisi S. Fisherning fikriga ko'ra, „soliqlar – bu bizning jamiyat sivilizatsiyasi uchun to'lov majburiyatimizdir”.²⁷ Shu nuqtayi nazardan davlat budjeti daromadlar qismini to'ldirib borish va shu asosda muttasil iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish ayni paytagi dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida olib borgan tadqiqot natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, to'g'ri soliqlar davlat budjeti daromadlari ichida yuqori salmoqqa ega manbalardan hisoblanadi. Har yili davlat budjeti daromadlarining katta qismi aynan ushbu soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Shuning uchun ham ayni paytda bevosita soliqlarni hisoblash va undirishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni aniqlash, ularni bartaraf etishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni kamaytirish va soliq tushumlari samaradorligini oshirish maqsadida har yili soliq qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda to'g'ri soliqlarni undirishdagi xato va kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo'lidagi takliflarimizni ushbu bobimizda yoritib o'tamiz. Ayni paytda to'g'ri soliqlarni undirishda quyidagi xatoliklar uchramoqda:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

²⁷ Завалишина И.А. – Налогообложение. The Pragma Corporation Enterprise Development Project. T: 2003-y

O'tkazilayotgan soliq tekshiruvlari davomida xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga to'langan moddiy naf tarzidagi daromadlardan jismoniy shaxslarning yozma arizasi mavjud bo'lmasada, daromad solig'i hisoblanmasdan qolinmoqda.

Soliq kodeksining 184-moddasiga asosan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to'lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to'lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

Mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxsga moddiy naf tarzida daromad to'lovchi soliq agenti, jismoniy shaxsning yozma arizasi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qolmaslikka haqlidir. Bunda jismoniy shaxs moddiy naf tarzidagi daromad bo'yicha Kodeksning 189-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lmagan jismoniy shaxslarga to'langan moddiy naf tarzidagi daromadlar yuzasidan jismoniy shaxslarning yozma arizasi mavjud bo'lmagan taqdirda, soliq agenti tomonidan daromad solig'i hisoblanishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini buxgalteriyaga taqdim etmagan yangi ishga qabul qilingan xodimlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinmaslik hollari uchramoqda.

Soliq kodeksining 186-moddasiga asosan yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish)

joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

2. Soliq solinadigan yalpi tushumni aniqlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblashda tannarxidan yoki olish baxosidan past baholarda realizatsiya qilingan tovarlar, shuningdek tekinga berilgan tovarlarni yoki ularni olish bahosi yalpi tushum tarkibiga kiritilmasligi, soliq hisoblanmasligiga olib keladi.

Soliq kodeksining 355-moddasiga asosan yalpi tushum soliq solish ob'ekti bo'lib, ushbu modda bilan yalpi tushum tarkibi belgilangan. Mazkur moddaga asosan, tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi kiritiladi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi.

3. Litsenziyalanadigan faoliyat turlarini amalga oshirishda litsenziya talablarining buzilishi.

Litsenziyalanuvchi faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qayta tuzilgan, uning nomi yoki yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan bo'lsada, litsenziyani qayta rasmiylashtirmasdan faoliyatni amalga oshirish holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 maydagi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi 71-II-sonli qonunining 20-moddasiga asosan quyidagilar belgilangan:

Yuridik shaxs bo'lmish litsenziat qayta tuzilgan, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Jismoniy shaxs bo'lmish litsenziat familiyasi, ismi va otasining ismi yoki turar joyi o'zgargan taqdirda, litsenziat qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Litsenziyalanadigan faoliyatni yuqoridagi talablarni buzgan holda amalga oshirish - faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qayta tuzilgan, nomi yoki yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan yuridik shaxs bo'lgan litsenziatlar faoliyatlarini litsenziyani qayta rasmiylashtirmasdan amalga oshirishlari yuqoridagi qonunning 20-moddasiga asosan faoliyat turlarini litsenziyasiz amalga oshirish deb baholanib, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 117-moddasiga asosan faoliyat turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida, biroq eng kam ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmagan miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

4. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlarni yashirish (kamaytiribko'rsatish).

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoki tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumlarni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

Soliq kodeksining 114-moddasiga asosan, kirim qilinmagan tovar qiymati yoki yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasiga teng miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi hollari hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarning almashtirilganligi, soxtalashtirilganligi yoki yo'q qilinganligi;
- hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

5. Savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasida yo'l qo'yilayotgan qonunbuzilishlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan nazorat-kassa mashinalarini ishmatmaslik, hisob-kitob terminallaridan foydalanish qoidalarini buzish, savdo va pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan naqd pul tushumlarini yashirish va o'z vaqtida bank muassasalariga topshirmaslik holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksining 119-moddasiga binoan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini ishlatish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan, xuddi shuningdek, kvitantsiyalar yozib berish, talonlar, cheklar yoki ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar bermasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik eng kam ish haqining o'ttiz baravaridan

ellik baravarigacha miqdorida, ushbu xarakatlar jarima qo'llanilgandan keyin bir yil ichida qayta sodir etilganda eng kam ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorida jarima solinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik Sudi Plenumining 2010-yil 18-iyundagi «Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi umumiy qismini qo'llashning ayrim masalalari haqida»gi 210-sonli qarori 38.2-bandiga asosan, barcha chakana savdo korxonalari, shuningdek aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning tushgan naqd pul mablag'larini har kuni bank muassasalariga topshirmasligi ham tushumni yashirish deb baholanadi hamda Soliq kodeksining 114-moddasiga binoan yashirilgan tushum miqdorida jarima solinishiga sabab bo'ladi.

6. Yer solig'ini hisoblash va to'lashda yo'l qo'yiladigan xatolar.

Yuridik shaxslar yo'l qo'yadigan tipik xato – qishloq joylaridagi yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkasini noto'g'ri aniqlash. Odatda, lalmi yerlar uchun nazarda tutilgan soliq stavkasi o'rniga ular bo'z-yaylov zonalar uchun belgilangan stavkani qo'laydilar, natijada yer solig'i summasini ancha pasaytirib yuboradilar.

Sanoat korxonalari ayrim hollarda suv olish va tozalash inshootlari uchun ko'zda tutilgan imtiyozlardan asossiz foydalanadi va shu tariqa yer solig'i summasini kamaytirib ko'rsatadi. Soliq kodeksining 282-moddasi 114-bandiga muvofiq aholi punktlari uchun bunday inshootlar bilan band bo'lgan yerlar soliqqa tortilmaydi.

Ayrim korxonalar asossiz tarzda ko'p qavatli turar joy binolarini soliqqa tortib natijada yer solig'i summasini oshirib yubormoqdalar.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, soliq to'lovchilar soliqqa tortilmasligi kerak bo'lgan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekadilar, do'konlar quradilar hamda savdo faoliyati va boshqa faoliyat bilan shug'ullanadilar-da, yer solig'ini to'lamaydilar. Vaholanki, Soliq kodeksi 282-moddasida ko'rsatilgandek, belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalar uchun ushbu moddada berilgan imtiyozlar tadbiq qilinmaydi.

Shunday holatlar ham bo'lmoqdaki, qishloq xo'jaligi korxonalari yangi barpo etilgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar bilan band yerlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llamaydi. Soliq kodeksi 282-moddasi 25-bandiga ko'ra yangi barpo etilgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanishidan qat'iy nazar, 3 yil muddatga soliqqa tortilmaydi. Kuzda ekilgan yangi ko'chatlar uchun berilan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tqazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan boshlanadi.

Ba'zi holatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zboshimchalik bilan yer uchastkalarini egallab olib yer solig'ini to'lamaydi. Bunday huquqbuzarlik Respublikamizning barcha mintaqalarida uchraydi. Vaholanki, Soliq kodeksi 121-moddasiga muvofiq yer uchastkalaridan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig'ining summasiga ekvivalent miqdorda:

- yuridik shaxslarga 2 baravar miqdorida;
- jismoniy shaxslarga 1.5 baravari miqdorida jarima solinishiga sabab bo'ladi.

7. Endi soliq to'lovchilar yer qaridan foydalanganlik uchun soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishda va to'lashda yo'l qo'yadigan asosiy xatolar haqida so'z yuritamiz.

Soliq to'lovchilarda eng ko'p uchraydigan va asosiy xato – kavlab olinayotgan foydali qazilmalar hajmini kamaytirib ko'rsatish.

Masalan, kavlash ishlarida foydali qazilmalarni kavlash hajmlarini ochib bermaslik hisobiga kavlash hajmlari yashiriladi, ular Davlat zaxira balansida ham aks ettirilmaydi.

Shuningdek, Respublikamiz korxona va tashkilotlari shag'al-qum aralashmasini kavlab olishda kavlash hajmlarini kamaytirib ko'rsatadilar va tegishlicha, yer qaridan foydalanganlik uchun soliq summasini kamaytiradilar.

Bundan tashqari, g'isht zavodlari g'ishtning hisob bo'yicha chiqishini kamaytirib ko'rsatadi hamda shu tariqa yer qaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq solinadigan baza hisoblanadigan sof tushum summasini ham kamaytiradi.

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan bazani noto'g'ri hisoblash.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 245-moddasiga muvofiq yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, agar ushbu moddaning oltinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lgan yoki tayyor mahsulot (qayta ishlab hosil qilingan mahsulot) o'zining ishlab chiqarish yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ayni paytda, bir qator korxonalar, daryodan olingan qum-shag'al aralashmasini, shuningdek mazkur aralashmani parchalash natijasida olingan shag'alni qurilish korxonalariga va jismoniy shaxslarga sotib, yer qaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan bazani kavlab olingan qum-shag'al aralashmasi (qum, shag'al, mayda tosh, graviy) qiymati o'rniga kavlab olingan qum-shag'al aralashmasining ishlab chiqarish tannarxining realizatsiya narxidan kelib chiqib hisoblashadi. Natijada yer qaridan foydalanganlik uchun soliq summasi ancha kamaytiriladi.

Ko'pincha alohida korxonalarining yer qaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha taqdim etgan hisobotlarida arifmetik xatolar, soliq stavkasini noto'g'ri qo'llash va boshqa xatolar uchraydi.

8. Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi. Endi soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishda va to'lashda yo'l qo'yilayotgan asosiy xatolarga e'tibor qaratamiz:

Soliq to'lovchilarga xos va eng ko'p uchraydigan va asosiy xato – foydalanilgan suv hajmini kamaytirib ko'rsatish.

Masalan, odatdagi shahar suv kanali boshqarmasi va tuman suv kanali boshqarmasi ma'lumotlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan haqiqiy foydalanilgan suv hajmi korxonalar va tashkilotlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarda ko'rsatgan ma'lumotlariga to'g'ri kelmaydi. Bunda korxona va tashkilotlarning ma'lumotlarida haqiqiy suv hajmi suv xo'jaligi korxonalari ma'lumotlariga qaragana kamroq ko'rsatadi va tegishlicha, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi kamaytirib ko'rsatiladi.

Bunday huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda haqiqiy ishlatilgan suv hajmini to'g'ri hisoblash uchun Respublika soliq organlari, soliq to'lovchilar bilan birgalikda, har chorakda foydalanilgan suv hajmi bo'yicha suv xo'jaligi korxonalari ma'lumotlarini korxonalar va tashkilotlar taqdim etgan hisob-kitob ma'lumotlari bilan solishtirilishi lozim. Bunday qiyoslash asosida foydalanilgan suvning haqiqiy hajmi aniqlanadi va qo'shimcha soliq summasi hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan bazani noto'g'ri aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 261-moddasi 2-qismi 4-bandiga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun

yer qariga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga kamaytiriladi, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno.

Biroq alohida korxonalar ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun shaxtadan suvlarni qochirish uchun foydali qazilmalarni chiqazib olish vaqtida chiqazib olingan yer osti suvlari hajmini asossiz tarzda soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlaydilar va shu tariqa soliq summasini kamaytirib ko'rsatadilar.

Ko'pgina korxona tashkilotlarda, ayniqsa voliyatlarda, suv quvurlari tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati haqidagi ma'lumotlarning yo'qligi, buning oqibatida soliq to'lovchilar yer osti va yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslari hajmining alohida hisobini noto'g'ri yuritadilar va tegishlicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasini noto'g'ri aniqlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 260-moddasi 3-xatboshisiga ko'ra soliq to'lovchilar yer osti va yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslari hajmining alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yer osti va yer usti manbalarida suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-fevraliga qadar taqdim etishlari shart.

Yana ayrim hollarda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha taqdim etilgan hisob-kitoblarda arifmetik xatolar, soliq stavkasidan noto'g'ri foydalanish hollari va boshqa kamchiliklar uchraydi.

Ko'rib o'tganimizdek, hali barcha amaliyotdagi kamchiliklar va qoidabuzarliklarni sanab o'tmagan bo'lsakda, to'g'ri soliqlarni undirishda xatoliklar ancha ko'pligi shularning o'zidan ham anglashilmoqa. Yuqorida qayd etilgan xatoliklarning eng ko'p tarqalgani va deyarli barcha turdagi soliq turlarini undirishda yo'l qo'yilayotgani bu soliq solinadigan bazani aniqlash,

soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda unga to'g'ri soliq stavkasini qo'llash bilan bog'liq. Shuningdek ko'chilik holatlarda berilgan soliq imtiyozlaridan to'g'ri va samarali foydalana olmaslik holatlari uchramoqda. Bularning barchasi soliq to'lovchilarning iqtisodiy savodxonligi pastligidan dalolat beradi, ularning soliq sohasidagi bilimlarga yetarlicha ega emasligi va amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabarsizligini tasdiqlaydi. Ushbu yuzaga kelgan vaziyatni jobiy tarafga o'zgartirish va shu asosda davlat budjetiga soliqlarning o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash hamda soliq tushumlari samaradorligini oshirish yo'lida quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1. Aholida soliq tizimi va amaldagi soliqlar haqida aniq tasavvur uyg'otish maqadida o'quv muassasalarida soliqlar va soliqqa tortishga oid fanlarni chuqurroq o'rgatish, ularni faqat iqtisodiy o'quv yurtlarda emas, balki boshqa yo'nalish va boshqa mutaxassislikdagi talabalarga ham o'qitish zarur. Zero, kundalik hayotimizda barcha soliqlar bilan to'qnashamiz;
2. Mamlakatimizda soliq maslahatchisi malaka sertifikatiga o'qitish kurslarini keng yoyish va shu orqali soliq maslahatchilari sonini oshirish;
3. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirishda soliqlardan samarali vosita sifatida foydalanish. Ya'ni, ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda soliq siyosati eng muhim omil sifatida etirof etilishini ta'minlash;
4. Soliq yukining og'irlashishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ayrim toifalari tomonidan yanada yuqori foyda olish istagi soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining yuzaga kelishiga omil bo'lib hisoblanadigan sabablarni oldini olishni keskinlashtirish;
5. Xo'jalik yurituvchi subyektlardan undiriladigan barcha soliqlarning ularning sof foydasi miqdorining kamayishi, ularning investitsion xarajatlarining moliyalashtirish imkonini pasaytirishga sabab bo'lmoqda, korxonalarning foydasidan olinadigan soliq bo'yicha soliqqa tortish bazasi nafaqat ishlab chiqarish xo'jalik xarajatlari summasiga balki oldindan to'langan soliqlar summasiga ham kamayishiga olib kelmoqda. Soliqqa tortishning bunday tartibi oldindan to'langan soliqlarning biri bo'yicha soliq stavkasining oshirilish foyda

solig'i bazasining kamayishiga va buning oqibatiga korxonaning sof foydasi miqdorining pasayishiga sabab bo'lmoqda, shu bois bunday omillarni bartaraf etish muhimdir;

6. Yuridik shaxslar mol–mulk solig'ining rag'batlantiruvchi xususiyatini oshirish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etish lozim;

7. Soliq imtiyozlarining mukammal taqdim etilmasligi oqibatida soliqdan qochish hollarining yuz berishini yoki mavjud imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarining nihoyatda chegaralanganligini bartaraf etishni ta'minlash muhimdir;

8. Davlat byudjeti daromadlari hajmidagi to'g'ri soliqlarning salmog'ini oshirish maqsadida, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmidagi to'g'ri soliqlarning salmog'ining pasayish tendensiyasiga barham berish uchun amaldagi soliq imtiyozlarini va to'lovsizlik, yani byudjetdan qarzdorlik muammosini qayta ko'rib chiqishga erishishni ta'minlash;

9. Byudjet daromadlariga to'lovlarni to'liq undirishni ta'minlash maqsadida quyidagi omillarni etiborga olish muhimdir, ya'ni:

- Yuridik shaxslarning faoliyati o'sishidan ichki nazoratini kuchaytirish orqali soliq intizomiga rioya etishga;
- Soliq nazoratini oqilona o'tkazishini va har tomonlama maslahat beruvchi huquqini oshirishga;
- Umum davlat soliqlarning asosiy to'lovchisi hisoblangan korxonalar faoliyatini joylarda tekshirishning soddalashtirish va hokazolar.

10. Yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushadigan soliqlar samaradorligini oshirish maqsadida ko'chmas mulklarni qayta baholash;

11. Yuridik va jismoniy shaxslarni ikki tomonlama soliqqa tortishga barham berish va shu asosda aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda aholida soliqdan qochishga harakat kayfiyatini uyg'otmaslik maqsadida xorijiy davlatlar bilan xalqaro soliqqa tortishga oid hamkorlik o'rnatish;

12. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini undirishda mahsulot tannarxi to'g'ri shakllantirilganini tekshirish hamda Soliq kodeksi 146, 147-moddalari va soliq imtiyozlari to'g'ri qo'llanilganiga alohida e'tibor qaratish;
13. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar to'liq kelib tushishini ta'minlash, bu borada aholiga ham og'irlik tushmasligi maqsadida jismoniy shaxslar daromadlari to'g'risida deklaratsiya to'ldirishi chog'ida ularning ish joyida ushlab qolingani daromad solig'i summalari bilan solishtirish;
14. Soliqlar bo'yicha budjetdan qarzдорlik darajasini kamaytirish maqsadida o'z vaqtida to'lanmagan soliqlarni undirish bo'yicha tadbirlarni kuchaytirish, to'lanmagan soliq qarziga nisbatan soliq qarziga nisbatan hisoblanadigan jarima va penya darajasini ko'paytirish;
15. Boshqa shu kabi ishlar.

III bob bo'yicha xulosa

Ko'rib o'tganimizdek, hali barcha amaliyotdagi kamchiliklar va qoidabuzarliklarni sanab o'tmagan bo'lsakda, to'g'ri soliqlarni undirishda xatoliklar ancha ko'pligi shularning o'zidan ham anglashilmoqa. Yuqorida qayd etilgandek, xatoliklarning eng ko'p tarqalgani va deyarli barcha turdagi soliq turlarini undirishda yo'l qo'yilayotgani bu soliq solinadigan bazani aniqlash, soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda unga to'g'ri soliq stavkasini qo'llash bilan bog'liq. Shuningdek ko'chilik holatlarda berilgan soliq imtiyozlaridan to'g'ri va samarali foydalana olmaslik holatlari uchramoqda. Bularning barchasi soliq to'lovchilarning iqtisodiy savodxonligi pastligidan dalolat beradi, ularning soliq sohasidagi bilimlarga yetarlicha ega emasligi va amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabarsizligini tasdiqlaydi.

Fikrimizcha, sanalgan xatoliklarni kamaytirish uchun Respublikamizda soliq nazoratini va ularning tashkiliy asoslarini yanada kuchaytirish kerak. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Ko'pgina mamlakatlarda, ayniqsa, g'arbda soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini xalq xo'jaligining tarmoqlari va faoliyat turlaridan kelib chiqib tadqiq

etadilar. Afsuski, biz mamlakatimiz bo'yicha ana shunday ma'lumotlarga ega emasmiz. Bizda ham hech bo'lmaganda, kompleks tekshiruvlar yakunlari bo'yicha soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga doir ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etish tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qaysi tarmoqlarda va qanday soliq turlari bo'yicha bo'yin tovlashlar mavjudligini, ularning sabablarini soliq qonunlari va yo'riqnomaviy hujjatlarning zaif tomonlarini aniqlash lozim. Shu tariqa biz soliqlarning davlat budjetiga to'liq va o'z vaqtida kelib tushishiga yo'l topishimiz mumkin.

XULOSA

Ayni paytda olib borilayotgan barcha iqtisodiy islohotlar negizida davlat budjeti daromadlar bazasini boyitib borish, davlat budjetini defitsit bilan chiqishini oldini olishga qaratilgan harakatlar yotadi. Har yili Prezidentimiz qilgan nutqlarida ham budjet-soliq siyosatini takomillashtirish ustuvor vazifalarimizdan biri ekanligini ta’kidlaydilar. Bu borada soliqlar davlat budjeti daromadlar bazasini to’ldirishning asosiy manbai hisoblanadi. Respublikamizda davlat budjeti daromadlarining 90-95 %i soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Hozirgi kunda solikli daromadlar tarkibida to’g’ri soliqlar salmoqli ulushga ega hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarining (Davlat maqsadli jamg’armalari daromadlarini hisobga olmaganda) 25-26 %i ushbu soliqlar hissasiga to’g’ri keladi. Ularning davlat budjeti daromdlari tarkibidagi ulushini oshirish, to’g’ri hisoblanishini nazorat qilish va o’z vaqtida davlat budjetiga kelib tushishini ta’minlash muhim masala hisoblanadi.

Olib borgan barcha tadqiqot natijalarimiz yakuni sifatida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

1. Soliq – bu Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg’araz xususiyatga ega bo’lgan, budjetga yo’naltiriladigan majburiy pul to’lovlaridir.
2. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig’imlar, bojlar va boshqa majburiy to’lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig’indisi soliq tizimini tashkil etadi. Mamlakatimizda soliq tizimi egri va to’g’ri soliqlardan tarkib topgan. Unga ko’ra to’g’ri soliqlar bu haqiqiy va huquqiy to’lovchilari ayni bir shaxs bo’lgan soliqlardir.
3. Mamlakatimizda soliq tizimining huquqiy asoslari yaxshi shakllantirilgan bo’lib, Soliq kodeksining 2008-yilda yangi tahrirda chiqishi huquqiy asoslarni takomillashtirishni yangi bosqichga olib chiqdi.
4. Soliq tizimi yanada samarali ishlashi maqsadida har yili islohotlar olib borilmoqda. Bu borada xorij tajribasini o’rganish orqali soliq to’lovchilarga

yengiliklar yaratish asosida soliq yukini kamaytirish siyosati olib borilmoqda.

5. Davlat budjeti ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqqa ega ekanligini ko'rdik. Bu so'nggi yillarda 25-26 % lar atrofida bo'lgan. Lekin bu ko'rsatkich egri soliqlarga nisbatan pastroqdir. Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, ko'proq soliq yuki iste'moilchilar zimmasiga tushmoqda.
6. Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirishda to'g'ri soliqlar asosiy rag'batlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Buni so'nggi yillarda soliq stavkalarini pasaytirishga qilinayotgan harakatlarda, turli soliq imtiyozlari berishda ko'rishimiz mumkin.
7. To'g'ri soliqlarning to'g'ri hisoblanganligini nazorat qilishda soliq hisobotlarida asosiy e'tibor berilishi kerak bo'lgan qismi bu soliq solinadigan bazani tekshirishdan iboratdir. Chunki, soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq va majburiy to'lovning stavkasi tadbiquan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.
8. To'g'ri soliqlarni to'liq va o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlashda faqatgina Davlat soliq xizmati organlari emas, balki boshqa organlar ham hamkorlikda ishlashlari kerak. Bu jarayonga bevosita tijorat banklari, bojxona organlari, ko'chmas mulkka huquqlarni ro'yxatga oluvchi organlarni, tuman, shahar hokimiyatlarini, prokratura va sud, shuningdek boshqa organlarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi.
9. Amaliyotda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni tekshirish natijasida ko'pgina xatoliklar qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabarsizlik yoki bo'lmasam, soliq qonunchiligini yaxshi bilmaslik oqibatida yuzaga kelayotganiga amin bo'ldik. Shundan kelib chiqib aholi o'rtasida soliq savodxonligini oshirish kerak degan xulosaga keldik. Shuningdek, soliq solinadigan bazani pasaytirib ko'rsatishga qaratilgan huquqbuzarliklar ham ayni paytdagi eng ko'p uchraydigan qoidabuzarliklardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda to'g'ri soliqlar samaradorligini oshirish va davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog'ini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- to'g'ri soliqlarga nisbatan ko'proq imtiyozlar berish. Ayniqsa xorijiy investorlarga soliq stavkalarini pasaytirish va shu orqali iqtisodiyotga ko'proq investitsiyalar jalb qilish;
- hozirgi kunda to'g'ri soliqlar tarkibida undirilishi eng qiyin va soliq qarzдорligi yuqori bo'lgan yer solig'i va mol-mulk solig'ini undirilishini yengillashtirish maqsadida yillik soliq summasini 12 oyga bo'lgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bilan birga undirilishini yo'lga qo'yish;
- joylarda yuritilayotgan shaxsiy varaqalarni to'liq inventarizatsiyalash, soliq turlari bo'yicha choraklik, oylik hisob-kitoblarning doimiyligini ta'minlash va o'z vaqtida shaxsiy varaqalarga kiritish;
- tijorat banklaridan olinadigan foyda solig'ini 15 % dan pasaytirish orqali ularning ixtiyorida ko'proq mablag' qoldirish va shu orqali banklar kapitallashuvini rag'batlantirish;
- mol-mulk solig'i samaradorligini oshirish maqsadida ko'chmas mol-mulk qiymatini qaytadan inventarizatsiyadan o'tkazish;
- barcha soliq turlari bo'yicha hisobot topshirishni elektron tarzda yo'lga qo'yish va hokazo.

Shunday qilib, yuqoridagi xulosa va takliflarni amaliyotga joriy etish, fikrimizcha, iqtisodiyotimizda soliq tushumlari samaradorligini oshirib ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi, eng muhimi kam xarajat sarflab yuqori daromad olishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent - „O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent – „NORMA”. 2013-y
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni 52(552)-son – „Soliq va budget siyosatining 2013-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish davriyligi qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2012-yil 25-dekabr.
4. Davlat soliq xizmati to'g'risida. 1997-yil 29-avgust.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari:

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” qarori, 2012-yil 25-dekabr, №IIK-1887
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” qarori, 2011-yil 30-dekabr, №IIK-1675
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” qarori, 2010-yil 24-dekabr, №IIK-1449
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida” qarori, 2009-yil 22-dekabr, №IIK-1245

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

9. I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2005-yil 28-yanvar
10. I.A. Karimov – „O'zbekiston buyuk kelajak sari”. T:O'zbekiston 1998-y.
11. I.A.Karimov - „2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” – T: ”O'zbekiston” 2012-yil.
12. I.A.Karimov – „Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” T: ”O'zbekiston” 2011-yil.
13. I.A.Karimov „Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” T: ”O'zbekiston” 2010-yil.
14. I.A.Karimov “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” T: ”O'zbekiston” 2013-yil.
15. I.A.Karimov - „Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdi” T: ”O'zbekiston” 2010-yil.

IV. Asosiy adabiyotlar:

16. A.Jo'rayev, A.Amanov – Soliqlar va soliqqa tortish. T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2008.
17. T.Boymuratov , A.Inoyatov, S.Bobomurodov, Sh.Qiyosov – Soliq menejmenti. T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2008.
18. Kuziyeva N.R. – Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi. O'quv qo'llanma. Toshkent Moliy instituti 2005.
19. Toshmurodova B.E. – Soliq nazorati. T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2007.
20. O. M. Azizov – Davlat soliqlari va yig'implari. O'quv qo'llanma. T: Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011.

21. Shamsutdinov F.Sh, Shamsutdinova Sh.F. – Chet mamlakatlar soliq tizimi, darslik. T: Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011.
22. S.Q.Xudoyqulov, X.A.Qurbonov, M.J.Bauyetdinov, A.T.Agzamov, Q.N.To'xsanov, Z.Shomansurova – Moliya va soliqlar. T: Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2012.
23. Yahyoyev K.- Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T: G'.G'ulom nashriyoti 2000-yil

V. Qo'shimcha adabiyotlar:

24. Завалишина И.А. – Налогообложение. The Pragma Corporation Enterprise Development Project. T: 2003-yil
25. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T: “O'qituvchi” NMIU. 2013-yil.
26. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi- „2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.:Iqtisodiyot.-2012.
27. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.- Toshkent:Iqtisodiyot.2011-y.

28. Taxation trends in the European Union – Eurostat statistical book. 2013 edition
29. A. Jo'rayev, N. Artiqov – Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanma, T: TMI 2004
30. A. Jo'rayev, O. Meyliyev, G'. Safarov – Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma, T: TMI 2004
31. Malikov T.S. – Soliqlar soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T: „Akademiya” 2002
32. Malikov T.S. , Jalilov P.T. – Budget-soliq siyosati yaxlitligi T: „Akademnashr” 2011

VI. Gazeta va jurnallar:

33. „Xalq so'zi” 2008 yil 9 fevral.- №29
34. „Soliq solish va buxgalteriya hisobi” 2012-yil № 11 (77)
35. „Soliq solish va buxgalteriya hisobi” 2011-yil № 5 (59)
36. „Soliq solish va buxgalteriya hisobi” 2011-yil № 6 (60)

VII. Statistik ma'lumotlar:

37. O'zbekiston iqtisodiyoti: Axborot tahliliy sharh 2000-2011 yillar. T: O'zbekiston 2012
38. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistic to'plam. T: „ O'zbekiston” 2011
39. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

VIII. Internet saytlar:

40. <http://www.mf.uz>
41. <http://www.stat.uz>
42. www.worldbank.org
43. <http://www.lex.uz>
44. <http://ec.europa.eu/taxtrends>
45. <http://www.soliq.uz>